

“MEN” KONSEPSIYASI INSONING O‘ZINI-O‘ZI ANGLASHI MASALALARI

Amonxonova Yanglishxon Abduazizxon qizi - JDPU, “Umumiy psixologiya” kafedrası stajyor-o‘qituvchisi

Xodjayeva Marjona Akramxuja qizi- JDPU, Psixologiya (amaliy psixologiya)psixologiya 521-23 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Men” konsepsiyasi va insoning o‘zini-o‘zi anglashi masalalari hususida mulohazalar yuritilgan. Ushbu yo‘nalishdagi asosiy metodologik yondashuvlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Refleksiya, personal identivlik, sublimatsiya, Id («U»), Ego («Men»), Superego («Oliy Men»), «Individual «Men», haqiqiy “Men”, emperik “Men”.

“Men” konsepsiyasini o‘rganish sohasida tadqiqot olib boradigan mutaxassislarning aksariyati o‘z tadqiqotlarining asosiy yadrosi sifatida G.Olport, S.Meddi, Uilyam Jeyms kabi psixologlarning nazariyalariga tayanadi. Ulardan biri U.Jeymsning shaxs nazariyasida shaxs «Men»i haqidagi fikrlarini to‘liq ifodalay olgan, desak bo‘ladi. U. Jeyms shaxs «Men»iga xos ikki aspektni ajratib ko‘rsatdi: empirik «Men» va haqiqiy «Men». Empirik «Men» inson nimaniki «o‘zimmiki» deb atay olgan barcha narsalar yig‘indisidir. Uning ichiga:

- Material «Men» — o‘z ichiga shaxsning tana tuzilishi va shaxsan uning o‘zigagina tegishli bo‘lgan barcha narsalarini oluvchi «Men» bo‘lsa;

- Ijtimoiy «Men» — shaxsdagi uning atrofida tan olgan «Men», har bir shaxsni o‘zi haqida uning atrofida fikri qiziqtiradi, albatta. Demak, shaxsning atrofida qancha alohida ijtimoiy guruhlar mavjud bo‘lsa, uning uchun shuncha ijtimoiy «Men»i mavjud bo‘ladi;

- Psixik «Men» — individning ijtimoiy muhitda uning kimligini namoyon qilishiga yordam beruvchi qobiliyat va iqtidorlarining yig‘indisi hisoblanadi;

- Haqiqiy yoki axloqiy «Men» — shaxsning o‘zini anglashi, o‘z-o‘ziga baho berishi doirasidan iboratdir.

Zamonaviy psixologiyada bunday «Men»ni shaxsning markaziy bo‘g‘ini sifatida qaraladi va «Men» konsepsiya (bu ilmiy atama fanga amerikalik psixolog K.Rodjers tomonidan kiritilgan) tushunchasi orqali ifodalanadi. U.Jeymsning tasvirlashicha, shaxsning ijtimoiy «Men»i ijtimoiy psixologik nazariyalar orasida uzoq vaqtdan beri va ko‘p o‘rganilgan mavzudir. Sotsiolog olimlardan biri Charlz Kuli «Shaxs oynasi» tushunchasini ishlatgan bo‘lib, bu orqali shaxs atrofida odamlarning unga nisbatan berayotgan bahosi va fikriga aynan oynaga qaraganday qaraydi, degan fikrni asoslagan. J.G. Midning fikricha, shaxsning o‘zini anglashi uning ijtimoiy munosabatlarining hosilasi bo‘lib, bu jarayonda u o‘ziga tashqi tomondan, go‘yoki obyektga qaragandek qarashni o‘rganadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, bunda atrofida butun bir ijtimoiy guruh yoki jamoa a‘zolarining fikri — jamoaviy ustanovka sifatida rol o‘ynaydi. Aynan shu holat tufayli biz

o'zimizni boshqalar qanday ko'rsa o'shanday ko'rishga o'rganamiz, o'zimizga boshqalar ko'zi bilan qarashga o'rganamiz. Lekin o'sha jamoadan aynan kimningdir fikri nima uchundir bizga ko'proq ta'sir ko'rsatadi, degan savol barchani qiziqtiradi. Bu savolga javob aynan jamoa a'zolarining barchasi ham biz haqimizda bir xilda fikr yuritmasligi va bizga bir xilda baho beravermasliklari bilan bog'liqdir. Bundan tashqari atrofdagilarning fikrini inobatga olishimizda qanday omillar rol o'ynaydi, degan savol ham muhimdir. Dastlabki omil sifatida fikrlarni qabul qiluvchining yoshi muhim rol o'ynaydi. Masalan, bolalar uchun otasonasi, o'qituvchisining fikri muhimdir. Katta yoshdagilar uchun esa oila a'zolaridan biri, do'sti, hamkasbi kabilar ta'sir ko'rsatuvchi shaxs bolishi mumkin. Bu borada jins xususiyati ham o'ziga xos ahamiyatga ega.

Karl Yungning ta'kidlashicha, shaxs psixikasi tuzilishida himoya qismi mavjud va u Persona deb ataladi. Ana shu Persona shaxsning haqiqiy «Men»i va Yolg'on «Men»i o'rtasida muammolarni keltirib chiqaradi. K. Yungning fikricha, Persona, o'ziga xos niqobga ega bo'lib, shaxs jamoatchilik bilan munosabatlarda o'zining haqiqiy «Men»inini yashirish maqsadida shu niqobni taqib oladi. Buning natijasida shaxs o'zining asl basharasini har doim ham va barcha ijtimoiy guruhlar oldida ham namoyon etavermaydi, natijada uning aslida qandayligini atrofdagilar bila olmaydi. K. Yungning taxmin qilishicha, Persona — bu jamiyat va shaxs o'rtasidagi hamkorlikdir. Uning maqsadi — shaxsning haqiqiy «Men»ini yashirgan holda boshqalarda yaxshi taassurot uyg'otishdan iboratdir. Ko'pincha shaxs o'zining asl holati bilan Personani chalkashtirib yuboradi. Bunday holda «Men» ham Persona bilan aralashib ketadi, shaxs esa ijtimoiy muhit oldida rol o'ynovchi yolg'onchi mavjudodga aylanib qoladi. Boshqacha qilib aytganda, shaxs o'zini o'z niqobidagi holati bilan chalkashtirib yuboradi. K.G.Yung bunday holat individning o'z-o'zini anglashiga xavf solishini ko'rsatib beradi. Shaxs «Men»ining tuzilishiga doir turli xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ular orasida eng ko'p tarqalgani, o'z ichiga «Men»ning uch tarkibini qamrab oladi: kognitiv (o'zi haqida bilimlar), emotsional (o'z-o'ziga baho) va xulqiy (o'ziga munosabat).

R. Bernsning «Men» konsepsiyasi R. Berns «Men» konsepsiyasining differensiyalashgan tizimini taklif qiladi. Unga ko'ra «Men» konsepsiyasining asosini o'ziga yo'nalganlik ustanovkalari tizimi tashkil etadi. «Men» konsepsiyasi strukturasi asosiy komponentini quyidagi ustanovkalar tashkil qiladi: kognitiv; emotsional; xulq-atvor. R. Berns «Men» konsepsiyasining ierarxik (ketma-ketlik bilan bir-biriga teng bo'ysundirish usuli) tizimi ko'rinishida «Men» konsepsiyasi cho'qqisiga erishib, o'z-o'zini anglashdagi imkoniyatlar chegarasini ochib berdi. R. Berns «Men» konsepsiyasi elementlarini quyidagicha tasniflagan: a) «Men» — anglovchi; b) «Men» — obyekt. U «Men» konsepsiyasini insonning o'ziga nisbatan ustanovkalarining yigindisi deb tushuntiradi. U buni ikki komponentga boladi, bu komponentlar o'zaro bog'liq bo'lib, quyidagicha izohlanadi: o'ziga baho berish yoki o'zini qabul qilish — «Men — anglovchi» — «Men» obrazi bilan bogliq bo'lib, bu esa o'z navbatida «Men obyekt» bilan bogliq boladi. R. Berns o'ziga yo'nalganlik ustanovkasini 3 ga boladi: — real (haqiqiy) «Men» ustanovkasi — bu individning o'z aktual qobiliyatlarining rolini qanday bo'lsa

shundayligicha qabul qilishi; — oynadagi «Men» ustanovkasi; — kelajakdagi «Men» ustanovkasi. R. Bernsning ierarxik tizimidagi eng quyi pog'onada «Men» konsepsiyasining keyingi aspektlari joylashgan. Bular: ijtimoiy men; ma'naviy men; jismoniy men. R. Berns nazariyasida jismoniy men aspekti boshqa elementlarga nisbatan zaifroq ochib berilgan.

«Men» va uning ijtimoiy psixologik mohiyati

Ideal yoki bo'lishi mumkin bo'lgan «Men». Shaxsning «Men» konsepsiyasi uning ayni paytdagi xarakterlovchi «Men» tizimlarini emas, balki shaxs bo'lishi mumkin bo'lgan yoki bo'lishni istagan «Men»larni o'z ichiga ham oladi. Amerikalik psixolog tadqiqotchi J. Markus va uning hammualliflarining fikricha, bo'lishi mumkin bo'lgan «Men» o'z tarkibiga shaxs bo'lishni istagan tasavvurlar — badavlat, yoqimtoy, sevimli «Men»larni oladi¹. Bo'lishi mumkin boigan «Men»ning ichiga shaxs bolishdan qo'rqadigan «Men»lar ham kiradi — ishsiz «Men», «ikkinchi» Men, yoqimsiz «Men». Bo'lishi mumkin boigan «Men» shaxsni har doim ma'lum maqsadlarga erishishga undaydi: bu maqsadlarga erishilgandan so'ng, shaxs o'zi intilgan hayotni ko'rishga muyassar bolishi mumkin. Ijtimoiy «Men»ning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. «Men» konsepsiyasi ijtimoiy psixologiyadagi tadqiqotlarning asosiy predmetiga aylandi, chunki u jamiyatdagi ijtimoiy fikrlarni tashkil etadi va shaxsning xulq-atvorini boshqaradi

Djennifer Kroker va Konn Volfning fikricha, yuqorida ko'rsatilgan sifatlar haqiqatdan ham o'zini hurmat qilish, o'zi bilan g'ururlanish uchun muhim ahamiyatga ega. «Bir odam o'zini hurmat etish uchun faoliyatidagi muvaffaqiyat va tashqi ko'rinish kerak bo'lsa, ikkinchisi uchun Xudoning suyukli bandasi ekanligini va u axloq me'yorlarini buzmagani bilish muhimroqdir». Demak, agar birinchisiga o'zini aqlli va chiroyli bo'lishni o'rgatishsa, ikkinchisini esa, o'zini odobli odam deb his etishga o'rgatgan taqdirda, u o'zini hurmat qiladi. Lekin Djonatan Brayn va Keyt Dattonlar o'zini hurmat etish masalasiga o'z-gacha yondashadilar, ular fikricha, sabab va oqibatning o'mini almashtirish lozim. Agar odamlar umuman o'zlarini qadrlashsa, ular o'zlarining tashqi ko'rinishini, o'zlarining qobiliyatlarini ham qadrlaydilar. Shaxsning o'zini anglashida ijtimoiy muhitning ta'siri qurilishi jihatidan psixologlar shartli ravishda to'rt o'zaro bog'liq tomonlarni ko'rsatib o'tadilar:

1. O'z-o'zini bilishi.
2. O'z-o'ziga munosabat.
3. O'z-o'zini his qilish.
4. O'z-o'ziga ta'sir.

Demak, o'z-o'zini bilish asosidagi o'zlikni anglash, umuman olganda, o'z-o'zini boshqarishga, tarbiyalashga olib borishi mumkin ekan. Lekin bunda o'z-o'ziga munosabatning rolini ham nazardan qochirmaslik kerak. Shuning uchun o'zlikni anglashning turli qirralari o'z-o'zini boshqarish va tarbiyalashga nima bera olishi mumkinligini ko'rib chiqamiz. O'zlikni anglashning qiymatli tomoni bo'lgan o'z-o'ziga munosabat insonni o'zga shaxs sifatida munosabatda bo'lishini nazarda

¹ (Marcus et al., 1989; Marcus & Nurius, 1986)

tutadi. U birinchi navbatda, shaxsning yoʻnalganligi (maqsadlari, ideallari, ehtiyojlari, qiziqishlari)ni, qadriyatlar maʼnaviy qiymatlarga yoʻnalishi, oʻziga talabchanligi, oʻzini ifoda qila olishini oʻz ichiga oladi. Oʻzining barchasi oʻz hissiyotlari va fikrlari, xatti-harakatlarini boshqarishga, asoslashga, oʻz-oʻzini tarbiyalashda u yoki bu darajada namoyon boʻladi. Oʻzlikni anglash va oʻz-oʻzini boshqarishning oʻzaro aloqasi va oʻzaro bogʻliqligini quyidagi chizma tarzida tasavvur qilish mumkin: Oʻz-oʻzini anglash — bu umuman olganda, shaxs «Men» obrazining hosil boʻlishi demakdir. Koʻpchilik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, «Men» obrazi insonda tez hosil boimaydi, balki butun umri davomida ijtimoiy taʼsirlar natijasida yuzaga keladi.

Refleksiya «Men» obrazi egasining ongiga taalluqli jarayondir. «Men» obraziga doir bir qancha nuqtayi nazarlar mavjud boʻlib, bulardan eng koʻp tarqalgani quyidagi uch komponent boʻlib, bular:

1. Bilish komponenti (oʻzini bilish).
2. Emotsional komponent (oʻz-oʻzini baholash).
3. Axloqiy komponent (oʻziga munosabat).

Insonning oʻz-oʻzini anglashi borasida koʻpgina olimlar ilmiypsixologik tadqiqot olib borganlar. Masalan, D. Mill «Men» konsepsiyasini xotira bilan boglagan boisa, V. Vundt «Men»ni insonni shaxsiy hissiyotlari bilan boglagan. I.S.Kon oʻzining «Men»ning yaratilishi» nomli asarida bu fikrlarni tahlil qilib, «inson avvalo kishining diqqat-eʼtiborini oʻziga qaratadigan sifatlarini anglaydi» deydi. D. Midning fikricha, oʻz-oʻzini anglash bu — birgalikdagi faoliyati tufayli birlashgan odamlarning koʻzi bilan oʻziga boqishdir. A.N. Leontev oʻz-oʻzini anglashda ijtimoiy faoliyatning roli haqida fikrlab, shunday deydi: «Individual «Men» oʻzining tarkibiga koʻra, ijtimoiy malakalar natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy tarkibdir». Insonning oʻz-oʻzini anglashi borasida yana bir qator mulohazalar boʻlib, uni oʻrganishda asosiy fakt shundaki, u oddiy tavsiflar kabi yuzaga kelmaydi, lekin u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, tarbiya shaxsning oʻzi va oʻz sifatleri toʻgʻrisidagi tasavvurlarning shakllanishi jarayonidir, deb taʼrif berish mumkin. Demak, har bir inson oʻzini, oʻzligini qanchalik aniq bilsa, tasavvur qila olsa, uning jamiyat meʼyorlariga qarshi harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kamayadi, shunda u tarbiyalangan boʻlib hisoblanadi.

Z. Freyd nazariyasiga koʻra «Men»ning tuzilishi

Zigmund Freyd shaxs nazariyasini rivojlantirish barobarida boshqa olimlarning fikrlariga qarshi chiqqan holda, nisbatan boshqacharoq tarzda asoslab bergan. Uning fikriga koʻra «individ — doimo jamiyat bilan nizoda boʻladi» deb taʼkidlaydi. Yaʼni «insonning biologik ehtiyojlari (ayniqsa jinsiy ehtiyojlari) jamiyatdagi mavjud madaniyat meʼyorlariga zid boʻlib, shaxs oʻz ehtiyojlarini qondirish jarayonida bu meʼyorlar bilan albatta toʻqnash keladi. Z. Freydning klassik psixoanaliz nazariyasiga koʻra, «Men» konsepsiyasi inson psixikasining strukturali komponenti hisoblanadi, boshqacha aytganda, Zigmund Freyd shaxs shakllanishining psixik strukturasi uch asosiy qismga boʻlib koʻrsatadi: 1. Id («U»). Bu shaxsga berilgan tugʻma reflekslar bilan bogliq holda mavjud boʻlgan

instinktiv ehtiyojlarning asosi. Rohat olish uchun yo'naltirilgan energiya manbai. «U» organizmning ovqatlanishi va kerakli ehtiyojlarini qondirish funksiyasini bajaradi. 2. Ego («Men»). Insonning atrof-muhitda o'zini tutishini, xulq-atvorini yo'lga solib turadigan funksiyani bajaradi. Ego reallik prinsipi orqali boshqariladi. Masalan, inson och qolganda, Ego uni zaharli mevalarni iste'mol qilishdan asrab qoladi, ya'ni taqiqlab qo'yadi. 3. Superego («Oliy Men»). U ideal ota-ona funksiyasini bajaradi. Superego insonning xulq-atvorini yo'lga solib turadi va otaonalarning standartlariga asosan uning jamiyatda shakllanishiga yordam beradi. Bu uchta komponent bolaning shaxs bo'lib shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bolalar reallik prinsipiga, shuningdek, Ego va Superegoning talablariga rioya qilishlari kerak. Ego Superegoning jazolashlari va xatti-harakatlari uchun javobgardir. Shu orqali inson o'z aybini va mag'rur ligini his qiladi. Freyd nazariyasiga kola, jamiyatda tarixan tarkib topgan odatlar, axloqiy prinsiplar, ijtimoiy «senzura»ning mavjudligi tufayli jinsiy mayl to'g'ridan to'g'ri to'siladi. Shuning uchun ham ba'zi kishilarda bu ongsiz tabiiy mayl bilan anglab turilgan vaziyat o'rtasida ichki ruhiy nizo paydo bo'ladi, bunday to'qnashuvlar ba'zan barqaror asab kasalliklariga (nevrozga) olib keladi. Kishilik jamiyatida ko'pchilik kishilarning hayoti davomida bu tabiiy ongsiz mayl energiyasi mehnat faoliyatiga, aqliy va ijodiy faoliyatga qaratiladi va sarf etiladi. Hayotning yuksak sohasiga energiyaning shu tariqa ko'chirilishi sublimatsiya deyiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Маерс Д. Социальная психология. —М.: Аллель, 2000
2. Мокчанцев Р., Мокчанцева А. Социальная психология. Издательства: Сибирское соглашение, Инфра.М.: 2001.
3. Семечкин Н.И. Социальная психология на рубеже: история, теория, исследования. —М.: 2001.
4. Социальная психология. Учеб. пос. \Под ред. А.Л. Журавлева, —М.: 2002.
5. Фромов С.С. Основа социологии. —М.: Юрист, 1997.
6. Чалдини Р., Кенрик Д. Социальная психология.—М.: 2002.6
7. V. Karimova. Ijtimoiy psixologiya va amaliyot. —T.: 2009.
8. V. Karimova, O. Xayitov. Shaxsning ijtimoiylashuv masalasi.T.: 2007.
9. Ijtimoiy psixologiya: o'quv qo'llanma / N. Ismoilova, D. Abdullayeva; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.—Toshkent:
10. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.-168 b
11. Odiljonova, K. (2023). O'QUVCHILARDA SOG'lom tafakkurni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari. Fan va innovatsiyalar, 2 (B4), 267-272.
12. Qarshiboyeva, G., & Odiljonova, X. (2022). ЎҚУВЧИЛАРДА ВАЛЕОЛОГИК БИЛИМНИ ОШИРИБ БОРИШ АСОСЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(5).
13. Abduazizkhan, A. Y. (2023). PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF ETHICAL ATTITUDES IN STUDENTS BASED ON AXIOLOGICAL APPROACHES. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 15, 216-220.

14. Камолова, Ш. У. (2023). ЎҚИТУВЧИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИ ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТНИ АМАЛГА ОШИРИШ АСОСИЙ ОМИЛ СИФАТИДА: Камолова Ширин Усаровна, ЖДПУ катта ўқитувчиси Амонхонова Янглишхон, Педагогика ва психология йўналиши 2-босқич магистри. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (2), 123-126.
15. Odiljonova, X. (2024). O'QUVCHILARDA VALEOLOGIK TAFAKKURNI O'STIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 3-11. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9411>
16. Amonxonova, Y. (2024). INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI RAHBARLARINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK VA INNOVASION BOSHQARUVI HAMDA AXBOROT TA'MINOTI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 12-20. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9412>
17. Odiljonova, X. (2024). O'QUVCHILARDA VALEOLOGIK TAFAKKURNI O'STIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 3-11. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9411>
18. Alibekov, D. (2024). TA'LIM TIZIMIGA INNOVATSION YONDASHUVNING STRATEGIK AHAMIYATI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 21-26. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9446>
19. Qodirova, M. (2022). O'SMIRLAR TARBIYASINING QIYINCHILIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING KELIB CHIQUISH SABABLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5105>